

TERMINOLOGIK LUG‘ATNING MAKRO VA MIKROSTRUKTURASI

Najmiddinov Muhammadjon
Andijon Davlat Universiteti doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqola terminologik lug‘atlarning mikro va makrostrukturasi bag‘ishlangan bo‘lib, terminologik lug‘at tuzish tamoyillari va metodlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, ko‘plab lug‘atshunos olimlarning fikrlari o‘rganib chiqilgan. Shu bilan birga bugungi kun leksikografiya yo‘nalishidagi dolzarb masalalar va ularni lug‘atshunoslik sohasidagi o‘rni haqida to‘htalib o‘tilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Terminografiya, leksikografiya, terminologiya, glossariy, bir tilli lug‘atlar, ikki tilli lug‘atlar, ko‘p tilli lug‘atlar, terminoelementlar, alifbo-uyali lug‘atlar, ideografik lug‘atlar, alifbo-relyatsion tartibli lug‘atlar, gipermatnli lug‘atlar.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена микро- и макроструктуре терминологических словарей, принципам и методам составления терминологических словарей. Кроме того, изучены мнения многих известных лексикографов. Вместе с этим рассмотрены актуальные на сегодня вопросы в области

Ключевые слова и выражения: Терминография, лексикография, терминология, глоссарий, одноязычные словари, двуязычные словари, многоязычные словари, терминологические элементы, алфавитно-ячейные словари, идеографические словари, алфавитно-реляционные словари, гипертекстовые словари.

ABSTRACT

The article is devoted to the micro and macrostructure of terminological dictionaries, and includes the principles and methods of compiling terminological dictionaries. In addition, the opinions of many lexicographers have been studied. Also, the current issues in the field of lexicography and their role in the field of lexicography are discussed.

Keywords and expressions: terminography, lexicography, terminology, glossary, monolingual dictionaries, bilingual dictionaries, multilingual dictionaries, terminological elements, alphabet-cell dictionaries, ideographic dictionaries, alphabetical-relational dictionaries, hypertext dictionaries

KIRISH

Lugʻat strukturasi. Normativ terminologik mahsulotlarni yaratish tamoyillari koʻplab qoʻllanma, darslik, monografiyalarda batafsil tavsiflangan, biroq birinchi tili oʻzbek tili boʻlgan koʻp tilli terminologik lugʻatlarni tuzish tamoyillari batafsil tadqiq etilgan monografik ish bizga maʼlum emas. Toʻgʻri, koʻp tilli lugʻatlarni tuzishning (masalan, ruscha-inglizcha, inglizcha-fransuzcha-ruscha kabi) ayrim masalalari yoritilgan dissertatsiyalar mavju ¹. Bir tilli terminologik lugʻatlarni tuzish tamoyillarini koʻp tilli lugʻatlarga doim ham qoʻllab boʻlmaydi, chunki ikkinchisi meʼyoriy lugʻatlardan hajmi, maqsadiga koʻra sezilarli darajada farq qiladi².

Biz oʻz tadqiqotimizda uchta asosiy maqsadga eʼtiborni qaratamiz. Ulardan birinchisi koʻp tilli (tarjima) terminologik lugʻatlarni tuzish uchun zarur boʻlgan terminologik leksikani inventarizatsiya qilish, aniqlashtirish va toʻldirish boʻlsa, ikkinchi maqsad terminologik lugʻat va tarjima lugʻatning xususiyatlarini tavsiflash; uni tuzish jarayoniga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash, tasniflash va taʼriflashdan iborat. Uchinchi maqsad – maxsus leksika uchun tarjima lugʻatlarini tuzish boʻyicha umumiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxassislar lugʻat parametrlari va uni yaratish jarayoniga taʼsir etuvchi omillarni leksikografik va tashqi omillarga boʻlishni taklif qilishadi³. Birinchi guruh omillari foydalanuvchining ehtiyoji bilan belgilansa, ikkinchisi lugʻat soʻzligi bilan yuzaga chiquvchi imkoniyatlarni aks ettiradi. Lugʻat foydalanuvchining ehtiyojini toʻla qondirishi uchun uning dizayni, strukturasi leksikografik omillardan kelib chiqib, yaratilishi kerak. Terminologik lugʻat tuzishda foydalanuvchining tanlangan fan

¹ Александровская Л.В. Семантика термина как члена общелитературной лексики (на м-ле английской морской терминологии): Автореф. дис. канд. фи-лол. наук М., 1973. – 24 с.; Н.Бушин И.В. Формирование вторичных терминосистем и их специфика (на материале терминологии судебной медицины рус. и англ. яз-в): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Саратов, 1966. – 16 с.; Гаврилина И.С. Моделирование и когнитивные основания терминосистемы профилактической токсикологии в современном английском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1998. – 24 с.; Казыро Г.Н. К проблеме лингвистического термина (на материале лексикологической и семасиологической терминологии французского и немецкого языков): Дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – М., 1980. – 185 с.; Кобрин Р.Ю. Опыт лингвистического анализа терминологии: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Горький, 1969. – 21 с.; Кузьмина Н.Б. Морфолого-семантический очерк русской терминологии языкознания: Дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. Минск, 1971. – 329 с.; Лаврова А.Н. Теория стратификации лексического состава научного подязыка (английский подязык органической химии): Автореф. дис. доктора филол. наук. – М., 1966. – 41 с.; Сейфи Г.С. Вопрос сопоставительного исследования составных лингвистических терминов русского и английского языков: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Горький, 1979. – 26 с.

sohasidagi bilim darajasi, ularning umumiy til tayyorgarligi, maxsus maqsadlar uchun tilni bilishi va leksikografik kompetentligi hisobga olinishi kerak.

Lugʻat maqolasi – lugʻatning asosiy tashkil etuvchilaridan biri. Odatda, izohli lugʻat maqolasi quyidagi tuzilishga ega boʻladi: (1) bosh soʻz; (2) fonetik tavsif, (3) grammatik xarakteristika; (4) bosh soʻz semantikasi; (5) bosh soʻzning birikish qobiliyati; (6) soʻzning yasallish qobiliyati; (7) etimologik axborot; (8) illyustrativ misollar; (9) leksikografik izoh; (10) ensiklopedik axborot; (11) havola⁴.

Lugʻatning makrostrukturasi – lugʻatning umumiy tuzilishiga tegishli strukturasi. Uning tashkil etuvchilari sifatida V.Dubichinskiy “Kirish soʻz”, “Alifbo tuzilishi”, “Ideografik tuzilish”, “Lugʻatning oʻng tomoni”, “Lugʻatning chap tomoni”, “Lugʻat koʻrsatkichlari” kabi qismlarni sanab oʻtadi⁵.

Lugʻat maqolasining chap va oʻng qismi. Lugʻat materiali, aniqroq aytadigan boʻlsak, lugʻat maqolasining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning shartli “chap” va “oʻng” qismlarga, yaʼni maʼlum birliklar roʻyxatiga va bu birliklar haqidagi maʼlumotlarga boʻlinishidir. I.S.Kudashevning taʼkidlashicha, “chap tomon”da lugʻat soʻzligi, “oʻng tomon”da soʻz/birikmalari izohi kabi anʼanaviy talqin bir qator nazariy muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, bu umumiy qonuniyatni “bir tomonlama lugʻatlar” (“oʻng tarafsiz lugʻatlar”) – imlo, morfem, orfoepik, chastotali, ters lugʻatlarning birliklariga nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Ikkinchidan, agar lugʻat maqolasi qismlarga boʻlinsa yoki uyani tashkil qilsa, tavsiflanadigan birliklarning haqiqiy sonini hisoblashda qiyinchiliklar paydo boʻladi. “Lugʻat maqolasi tarkibiga kirib ketadigan qoʻshma soʻz, frazeologik birliklarni lugʻat birligi deb hisoblash kerakmi, yoki yoʻqmi?” kabi bir qancha savollar tugʻiladi. Yoki “Ikki tilli lugʻatda boshqa tilga tarjima qilingan birlikdan foydalanish boʻyicha misollarni chap tomonga kiritish kerakmi yoki ular oʻng tomonga tegishli boʻladimi?” Bu kabi savollar yechimiga lugʻat tuzuvchi alohida diqqat qaratishi lozim boʻladi. Bunday nazariy va amaliy muammolarning mavjudligi lugʻatning chap va oʻng qismlari haqidagi anʼanaviy qoidalarni qayta koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi. Biz, lugʻat muallifi lugʻat maqsadidan kelib chiqqan holda qaysi tushunchani izohlashni nazarda tutayotgan boʻlsa, oʻsha maʼlumot chap tomonda, qolgan barcha maʼlumotlar lugʻatning qayerida joylashishidan qatʼi nazar, bu maʼlumotni “oʻng tomon” sifatida koʻrib chiqishni taklif qilamiz.

Tarjima lugʻatlarida, hatto biror bir lugʻat soʻzligi uchun maʼlum birlikning ahamiyatli emasligini koʻrsatishning maxsus texnikasi mavjud: yaʼni biror atama bu

⁴ Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. – Вена-Харковь, 1998. – 160 с. – С.90.

⁵ Ўша манба.

sohada emas, faqat ma'lum bir iborada uchraydi yoki uni tarjima qilib bo'lmaydi. Bu holda, bosh so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi va bosh so'zning o'zi tarjima qilinmaydi⁶. Masalan: (Финско-русский словарь по социальному обеспечению)

katkaisu:

~, automaattinen автоматическое прерывание (трудового стажа)

~, tekninen техническое прерывание (трудового стажа)

I.S.Kudashev lug'atning "o'ng qismi" deganda nafaqat lug'at maqolasining o'ng qismini, balki umuman chap qism birliklari haqidagi har qanday ma'lumotni, shu jumladan, lug'atning asosiy qismidan tashqarida joylashgan birliklar: sarlavha, kirish so'z, qo'shimcha izoh va ko'rsatkichlardagi axborotlarni ham nazarda tutadi. Uning fikricha, o'ng qismning bunday talqini "bir tomonlama lug'atlar" muammosi yechimiga olib keladi; lug'at maqolasi hamda lug'atning boshqa qismlari mazmuni va qurilishini bitta kontekstda ko'rib chiqishga yordam beradi. Manbalarda an'anaviy leksikografiya ob'ekti sifatida lug'at maqolasining chap qismiga quyidagi turdagi birliklar kiritiladi⁷:

- 1) so'zdan kichik birliklar: morfema, sema, atama elementlari;
- 2) so'zdan katta birliklar: turg'un ibora, erkin ibora, sleng, klishe, shtamp va boshqalar;
- 3) leksik tizimning tarkibiy birliklari: sinonimik qator, antonimik juftlik, omonimik va paronimik zanjirlar, butun-bo'lak va so'z yasaliş uyalari va boshqalar;
- 4) nutq birliklari;
- 5) sun'iy til birliklari, an'anaviy belgi va formulalar;
- 6) grafik elementlar (masalan, rasmlı lug'at, imo-ishoralar lug'ati).

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan kelajakda lug'at birliklari audio va video materiallar bo'ladigan lug'atlar paydo bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Shunday qilib, zamonaviy lug'atlarning chap tomonida har xil turdagi birliklar bo'lishi mumkin. Biroq terminologik lug'atning chap qismida ifodalanishi mumkin bo'lgan birliklarning tabiati, shuningdek, ularning tarkibi bo'yicha ma'lum cheklovlar mavjud.

Ikkinchi cheklov, chap tomon elementlari ma'lum bir tizimni ifodalashi kerakligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash lozimki, bu o'rında "tizimli" va "leksik tizimlilik"ni tenglashtirish noto'g'ri. P.N. Denisov shunday yozadi: "... lug'at – bu

⁶ Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики // Helsinki University Translation Studies. – Monographs 3. – Helsinki, 2007. – 445 c. – С. 36.

⁷ Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики // Helsinki University Translation Studies. – Monographs 3. – Helsinki, 2007. – 445 c. – С. 36.

soʻz boʻyligining tasodifiy va taxminiy soʻzlar toʻplami emas, balki leksik tizim yoki mikrosistema boʻlgan asar. Amaliy leksikografiya yuzlab qiyin soʻzlar lugʻatlari; bir necha ming soʻzni qamrab oladigan oʻquv tarjima lugʻatlari mavjud boʻlishiga qaramay, ular nazariy jihatdan tilning soʻz boʻyligini oʻzgartirish nazariyasiga zid⁸. Leksikografik tajribadan maʼlumki, lugʻatni shakllantirishda, lingvistik omillardan tashqari, pragmatik, ekstralingvistik, subʼektiv va boshqa omillar ham muhim rol oʻynaydi.

Yana shuni ham taʼkidlash joizki, lugʻat maqolasining chap tomoni tarkibi haqidagi muammo bilan bogʻliq holda, terminologik lugʻat va ensiklopediyalarning soʻzligi farqli boʻladi. Lingvistik lugʻatlarning (jumladan, terminologik lugʻatlar ham) chap qismi, odatda, maʼlum bir tilning soʻz boʻyligini inventarizatsiya qilish vazifasini bajaradi; natijada nafaqat ochiq, balki yopiq paradigmalar elementlari – predlog, birikma, olmosh va h.k.lar lugʻat soʻzligidan joy oladi. Oʻzbek tilida bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama ham lugʻat soʻzligiga kirishi mumkin. Albatta, terminologik lugʻatlarda bunday birliklar faqat termin sifatidagina qoʻllanadi. Ensiklopediyalarda esa nomlar orasida ot turkumiga oid birliklar ustunlik qiladi.

Leksikografik parametrlash. Qomusiy lugʻat yaratish maqsadi, odatda, leksikografiya fanida markazlashgan chiziqqa xos xususiyat sifatida qaraladi. “Leksikografik parametrlash deganda zamonaviy leksikografiyaning lugʻat shaklida turli xil va eng ideal – lingvistik tadqiqotlar natijalarining barchasini taqdim etish istagi tushuniladi”⁹. Leksikografik parametr eng umumiy shaklda tilning u yoki bu tarkibiy elementi yoki funksional hodisasini, ularning ekstralingvistik tavsiflarini leksikografik talqin qilish usuli sifatida taqdim etilishi mumkin. Y.N. Karaulov leksikografik parametrdagi til tuzilishi haqida maʼlum bir kvant maʼlumotni koʻradi, boshqacha qilib aytganda, bu tilning tuzilish xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus lugʻatdir¹⁰. Lugʻatda lingvistik birlikni taʼriflashning muayyan oʻlchovli usulini oʻzida aks ettiruvchi leksikografik parametrlar muammosi leksikografik universallar masalasi bilan bevosita bogʻliq. Lugʻat parametrlarini nazariy (yoki kontseptual) va empirik (yoki pragmatik) deb ajratish maqsadga muvofiq¹¹.

Leksikografik parametrlarning eng toʻliq roʻyxati birinchi marta Y.N.Karaulovning “Zamonaviy leksikografik amaliyotda bir tendensiya

⁸ Денисов П.Н. Лексика русского языка и принципы ее описания. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Рус. яз., 1993. – 245 с. – С. 210.

⁹ Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка - М., 1981. – С.8.

¹⁰ Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка - М., 1981. – С. 51.

¹¹ Складневская, 1995, п. 16

to'g'risida"gi maqolasida keltirilgan¹². Masalan, til(lar), kirish qismi, xronologik parametrlar, miqdor, orfografik xususiyat, so'z uzunligi, urg'u, son, fe'l turi, o'timlilik, tushlash, vaqt, so'zning morfem tarkibi (morfologik bo'linishi), hosila parametri leksikografik parametrlar sifatida ajralib turadi. S.V.Grinev "Terminologik leksikografiyaga kirish" kitobida areal, sintagmatik, illyustrativ, stilistik parametrlar, sinonimik, assotsiativ, bibliografik va boshqalar makro va mikrostruktura nuqtai nazaridan terminologik lug'at parametrlari haqida ma'lumotlar keltirilgan¹³.

Ko'p tilli elektron lug'at, uning turlari va imkoniyatlari. Ko'p tilli terminologik lug'atlar platformasini ishlab chiqishni tadqiq qilar ekanmiz, bugungi kunda mavjud elektron lug'atlar va platformalar tajribasini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. XXI asrda insonlarning kasbiy faoliyati va ta'lim sohasida axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan elektron lug'atlar keng tarqaldi. Elektron lug'atlar yaratish tarixi ellik yildan ko'proq vaqtga borib taqaladi. Kompyuter (o'sha paytda hali elektron hisoblash mashinasi) asosida yaratilgan birinchi leksikografik manbalardan sanalgan mashhur Jorjtaun eksperimenti – Georgetown University Machine Translation Research and Language Project (1956) jarayonida to'plangan Jorjtaun universiteti lug'at bazasi edi. Undan keyin Vebsterning 7-kompyuter nashri (1963), "Random House" (Random House Edition of English Language, 1966) va "American Heritage" nashriyotlari izohli lug'atlarining elektron nashrlari paydo bo'ldi (American Heritage Dictionary, 1969). Bular sirasida Longman (Longman Dictionary of Contemporary English, 1978), Harper Collins (Collins COBUILD English Dictionary, 1979) kabi zamonaviy ingliz tilidagi izohli lug'atlarning kompyuter versiyalarini sanash o'rinli bo'lardi¹⁴.

Umumiy maqsadlarda qo'llanuvchi ikki tilli lug'atlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Lingvo (X3, X5 versiyalari).
2. Multitran.
3. Polyglossum (3.52, 3.72 versiyalari).
4. MultiLex 6 ("Compact" va "Deluxe" versiyalari).

Umumiy maqsadlarda qo'llanuvchi bir tilli (onlayn) lug'atlar sirasiga tubandagi mahsulotlar mansub bo'la oladi:

1. Ingliz tilining Amerika merosi lug'ati.

¹² Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М., 1981. – С. 152-153.

¹³ Гринев С.В. Введение в терминографию: Как просто и легко составить словарь. Учебное пособие. – 3-е изд., доп. – М.: Либроком, 2009. – 224 с.

¹⁴ Карпов Ю.М., Лейчик В.М. Применение методов кластер-анализа для решения терминологических задач // Проблемы информационных систем. – М., 1986 - №91. – С. 69-87.

2. Merriam-Webster ingliz tili lugʻati.
3. Oksford ingliz tili lugʻati (20 tomlik izohli lugʻat).
4. WordNet English Dictionary va Thesaurus.
5. Ultralingua English Language Dictionary.
6. Rus tilining izohli lugʻati (S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova tahririda).
7. Rus tilining izohli lugʻati (D.N.Ushakov tahriri).

Bugungi kunda sohaviy bir tilli elektron lugʻatlar ham ommalashgan. Ular sirasida “Fan va texnologiyalarning akademik matbuot lugʻati”, “Onlayn buxgalteriya lugʻati”, “Sanʼat lugʻati”, “Bank va moliya lugʻati”, “Qonun lugʻati”, “Onlayn tibbiy lugʻat” kabi elektron lugʻatlarni sanash mumkin. D.I.Mendeleyevning onlayn jadvali, kimyoviy elementlarning talaffuzi va ularning nomlari 7 tilda koʻrsatuvchi “WebElements” lugʻatini koʻp tilli tarjima elektron sohaviy lugʻat sifatida alohida taʼkidlash zarur. Keltirilgan roʻyxat shuni koʻrsatadiki, mavjud elektron umumiy va soha lugʻatlari ichida aynan lingvistik terminlar lugʻatlari mavjud emas. Bu esa oʻzbek-ingliz-rus tillari lingvistik terminlar elektron lugʻatini yaratishga ehtiyojning mavjudligini yana bir marta dalillaydi. Elektron lingvistik terminlar lugʻatlari boʻlmasa-da, aytish joizki, ingliz tilida elektron lingvistik lugʻatlar (terminologik emas) talaygina. Masalan, “Xalqaro Rojet tezisi”, “Rojetning inglizcha soʻzlar va iboralar tezisi”, “Ixtisoslashtirilgan tezislari”, “Ingliz tilining sinonimlar lugʻati”, “Webster tezisi” kabi elektron mahsulotlarni shunday lugʻatlar sirasida sanash joiz.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan elektron lugʻatlar bilan tanishish jarayonida ularning interfeysi, arxitekturasi, dizayni, qidiruv tizimi imkoniyatlari, soʻzlikni qamrab olish darajasi kabi parametrlarini qiyosladik, tahtilga tortdik. Ishning keyingi qismlarida oʻzbek-ingliz-rus tili lingvistik terminlar lugʻatini loyihalash jarayonida yuqoridagi tajribaga tayaniladi. Zero, lugʻat tuzish bosqichlarini I.Kudashev quyidagicha izohlaydi: “Lugʻat tuzish jarayoni boshlangʻich shartlarga bogʻliq: eski lugʻat yangilanadimi yoki yangisi tuzilyaptimi? Lugʻatni loyihalash jarayoni, yaʼni asl dizayniga, shuningdek, lugʻat parametrlariga bogʻliq”¹⁵. Dizaynning dastlabki bosqichlarida qabul qilingan qaror variantlarni toraytiradi va keyingi qaror qabul qilishga taʼsir qiladi¹⁶. Elektron lugʻat tuzishda dasturiy taʼminotni sinovdan oʻtkazish jarayoni, qogʻoz lugʻat tuzishda esa asl maketni tuzish asosiy bosqich sanaladi.

¹⁵ Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики // Helsinki University Translation Studies. – Monographs 3. – Helsinki, 2007. – 445 с. – С. 51.

¹⁶ Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Моск. Лицей, 1993. – 309 с. – С. 233.

REFERENCES

1. Терминологический словарь по библиотечному делу и смежным отраслям знания. Под ред. З.Б.Высоцкой. – М., 1995.; Партина А.С. Архитектурные термины: Иллюстрированный словарь. – М., 2001. 768 с.; Сухова С. Словарь по ортопедии лошади // www.lingvoda.ru/dictionaries/dictInfo_window.asp?dictId=47
2. Словарь социолингвистических терминов. Под ред. В.Ю. Михальченко. – М., 2006.
3. Русско-английский и англо-русский словари лесотехнических терминов. Под ред. И.Г.Деревянко. – М., 2003.
4. Англо-русский Словарь полезных растений на 20 европейских языках. – М., 1970.; Трехязычный терминологический словарь-минимум по специальности «автомобильные дороги» // <https://didacts.ru/termin/terminologicheskie-slovari.html>
5. Замятина Н.А. Терминология русской иконописи. – М., 1997.
6. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь. – М., 1997.
7. Большой юридический словарь. – М., 2001.
8. Терминологический словарь по логистике // www.loglink.ru/dictionary/
9. Краткий словарь музейных терминов. – М., 1974.
10. Терминологический минимум по теории языка // www.sibznanie.ru/work/view/2667/
11. Фельде О.В. Словарь по риторике языкознанию и эффективному общению // <https://didacts.ru/termin/terminologicheskie-slovari.html>
12. Толковый словарь по бизнесу, коммерции и маркетингу. Под ред. П.Ф.Пероченко. – М., 1992.